

UY XO'JALIKLARINING DAROMADINI KO'PAYTIRISH- KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI

Ergashov Sherzod A'zamovich

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston sharoitida Uy xo'jaliklari daromadini oshirish, inson resurslarini boshqarish, mehnat bozorini isloh qilish orqali kambag'allikni qisqartirishni o'rganishga bag'ishlan. Maqolada hududlar kesimida ixtisoslashuvdan kelib chiqqan holatda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan. Tadqiqot ishida olib borilgan uy xo'jaliklarining daromadlarini oshirishdagi tizimlarning integratsiyalashuvi, aqlli issiqxonalar, yetishtirgan mahsulotlarni saqlashda yirik hajmdagi muzlatgich, inson resurslarini boshqarishda uning nazariy asoslarini ko'rib chiqish va uning amaliy tadbiri to'g'risidagi metodologiyasi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish. Ushbu jarayon bilan bog'liq tadqiqotning nazariy va amaliy jihatlarini ko'rib chiqishdagi mammolar va uning tahliliy natijalarini o'z ichiga olgan.

Kalit so'zlar: Inson resurslarini boshqarish, uy xo'jaliklari, mehnat bozori, oila byudjeti, uy xo'jaligi rejalashtirish, resurslarni tejash, oziq-ovqat ta'minoti, mahalliy infratuzilma, kambag'allik darajasi, ta'minot zanjiri, jamg'arma moliyaviy barqarorlik, barqaror bandlik,

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию вопросов снижения бедности путем увеличения доходов домохозяйств, управления человеческими ресурсами и реформирования рынка труда в условиях Узбекистана. В статье поставлена задача увеличения доходов населения в случае региональной специализации. Формирование информации по интеграции систем увеличения доходов домохозяйств, умных теплиц, крупногабаритных холодильников для хранения выращиваемой продукции, обзор ее теоретических основ в управлении человеческими ресурсами и методологии ее практического применения. Он включает теоретические и практические аспекты исследований, связанных с этим процессом, и его аналитические результаты.

Ключевые слова: управление человеческими ресурсами, домохозяйства, рынок труда, семейный бюджет, планирование домохозяйства, экономия ресурсов, снабжение продовольствием, местная инфраструктура, уровень бедности, цепочка поставок, финансовая стабильность сбережений, устойчивая занятость,

Abstract: This article is devoted to the study of poverty reduction through increasing household income, human resource management, and labor market reform

in the conditions of Uzbekistan. The article focuses on increasing the income of the population in the context of specialization in the regions. The research work includes the integration of systems for increasing household income, smart greenhouses, large-scale refrigerators for storing grown products, and the formation of information on the methodology for considering its theoretical foundations and its practical application in human resource management. The article includes information on the theoretical and practical aspects of the study related to this process and its analytical results.

Keywords: Human resource management, households, labor market, family budget, household planning, resource conservation, food security, local infrastructure, poverty level, supply chain, savings, financial stability, sustainable employment.

Kirish

Uy xo'jalik daromadlari oshirishdagi e'tibor bugungi kunda dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bunda aynan mehnat bozorini, band va ishsiz aholini tarkibiy tahlil qilish, ishsizlarni manzilli aniqlash va ularning hisobini yuritish — mehnat bozorini tahlil qilish va ishsizlarning hisobini manzilli yuritish, iqtisodiyotning rivojlanib kelayotgan tarmoq va sohalarida mehnat resurslariga bo'lgan talabni prognoz qilish, mehnat bozoridagi tarkibiy muammolarni aniqlash va nomutanosibliklarning oldini olish, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan faol hamkorlikda ishlash. Mehnatga layoqatli aholi qatlamida ularning xoxish istaklarini inobatga olgan holda bugungi kunda o'zini-o'zi band qilish bo'yicha 72 turdagi yo'nalishlar kesimida kreditlar ajratish va ularni qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini ta'minlash dasturlarini shakllantirish, bo'sh ish o'rinlari hisobini yuritish, ishsizlarni ishga joylashtirish — har yil uchun hududlar, tarmoq va sohalar kesimida aholi bandligini ta'minlash dasturini ishlab chiqish va uning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, mavjud bo'sh ish o'rinlari hisobini yuritish va monitoring qilish, ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirishni tashkil etish va ish beruvchilar bilan bog'lash. Kambag'allikni qisqartirish — kambag'allik dinamikasi va tarkibini tahlil qilish, oilalarni kambag'allikdan chiqarish individual rejalarining ishlab chiqilishini tashkil etish va ijrosini muvofiqlashtirish, aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni joylarga chiqqan holda o'rganish hamda natijasi bo'yicha "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasiga ya'ni Respublika komissiyasi har oyda ma'lumot kiritib borish:

Hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirish — mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman, shahar hokimining yordamchisi ya'ni "hokim yordamchisi" kasb faoliyatini uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, istiqbolli loyihalar bilan ishlash ko'nikmasi va malakasini oshirib borishni doimiy tahlil qilish, eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va baholash, faoliyatida aniqlangan

tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Bugungi aynan bu bilan bog'liq davlat dasturlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi PF-143-son farmonga muvofiq "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi qabul qilinganligi hamda ushbu dastur ijrosini tashkil qilish vazifasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga yuklatilganligi ma'lumot uchun aytish mumkin.

Shavkat Mirziyoyevning "Kambag'allikdan farovonlik sari"¹ mavzusidagi maruzasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan siyosatlarini yoritib, ijtimoiy va iqtisodiy tenglikni ta'minlashga bo'lgan yondashuvni ifodalagan. Maruzada Shavkat Mirziyoyev kambag'allikni bartaraf etish va xalqning farovonligini oshirishga oid bir qator muhim masalalarni ko'rsatdi.

Maruzaning asosiy g'oyalari:

1. **Kambag'allikni qisqartirish va farovonlikni oshirish:** Mirziyoyev maruzasida kambag'allikni qisqartirishning muhimligi, ayniqsa, yangi iqtisodiy siyosatlar orqali ijtimoiy farovonlikni oshirish zarurligi haqida gapirdi. U kambag'allikni bartaraf etish nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki jamiyatning barcha qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim, sog'liqni saqlash, va ish bilan ta'minlash kabi asosiy sohalarida ham islohotlar qilishni nazarda tutdi.

2. **Ijtimoiy adolat va tenglik:** Shavkat Mirziyoyev o'z maruzasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali jamiyatda ijtimoiy adolatni va tenglikni qaror toptirishga alohida e'tibor qaratdi. U kambag'allikni kamaytirishning asosiy yo'li sifatida daromad taqsimotidagi tengsizlikni kamaytirishni ko'rsatdi. Uning fikriga ko'ra, eng ko'p yordamga muhtoj bo'lgan qatlamlarga e'tibor qaratish, ularning daromadlarini oshirish muhim.

3. **Iqtisodiy islohotlar va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash:** Mirziyoyev o'z maruzasida kichik va o'rta bizneslarni rivojlantirishga alohida urg'u berdi. Ularning rivojlanishi orqali ish o'rinlari yaratish, yangi iqtisodiy imkoniyatlar ochish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarini modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidladi. Bu orqali u kambag'allikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirishga intildi.

4. **Ijtimoiy himoya tizimi:** Mirziyoyev kambag'allikdan chiqish yo'lida ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashning zarurligini ta'kidladi. U kambag'allar uchun yordam dasturlarini kengaytirish, pensiya va nafaqalarni oshirish, sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash, ta'limga keng imkoniyatlar yaratish orqali farovonlikka erishish zarurligini ko'rsatdi.

5. **Rivojlanishning barqarorligi:** Maruzada barqaror rivojlanishning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlari haqida gapirdi. Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida

barqaror rivojlanishning ahamiyatini ta'kidladi, bu nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy hamda ekologik barqarorlikni ham ta'minlashni anglatadi.

6. **Davlatning roli:** Maruzada davlatning kambag'allikni kamaytirishdagi roli va uning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi mas'uliyati ko'rsatildi. Davlatning muhim vazifasi — kambag'allikni bartaraf etish va ijtimoiy farovonlikni oshirish yo'lidagi barcha tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, aholiga qulay sharoitlar yaratishdir.

O'zbekistonda kambag'allik darajasi 2024-yilda 8,9 foizgacha pasaydi, deb xabar berdi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi prezident huzuridagi Statistika agentligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari bo'yicha. Baholash Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirildi va xalqaro hisoblash uslubiga asoslangan.

Ushbu metodika bo'yicha yil davomida butun respublika bo'yicha uy xo'jaliklari budjetlari o'rganilgan. Qishloq xo'jaligida uy-joy tomorqalardan oqilona foydalanib, aqlli issiqxonalar tashkil qilish, uy xo'jaliklarida mehnatga layoqatli aholining aniq kasbga yo'naltirish bo'yicha respublikaning barcha shahar tumanlarida tashkil etilgan monomarkazlarda kasb mahoratini oshirish va ishga jalb qilish, bundan tashqari ish beruvchi va inson resurslari o'rtasidagi munosabatni muvofiqlashtirish.

Bugungi kundagi dolzarb masala inson resurslarini boshqarish oilalarni kambag'allikdan chiqarish individual rejalarining to'g'ri, maqsadli, manzilli tuzilganligi va natijadorligini hamda eng og'ir ahvoldagi mahallalarning infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha ishlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tahlil qiladi, davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalariga "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi ma'lumotlaridan foydalangan holda Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qurilayotgan, ta'mirlanayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan obyektlardagi ishchilar sonining loyiha-smeta hujjatlari hamda pudrat ishlari hajmiga muvofiqligi yuzasidan nazorat tadbirlarini o'tkazishga ruxsat etiladi.

Adabiyotlar sharhi

O'zbekistonda uy xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash va ularning turmush darajasini oshirish maqsadida bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Quyida ushbu dasturlarning ba'zilar haqida ma'lumot berilgan:

1. **"O'zbekiston – 2030" strategiyasi va 2024-yilga mo'ljallangan Davlat dasturi:** Ushbu strategiya doirasida uy-joy va ipoteka bozorini rivojlantirish, aholini arzon va sifatli uy-joy bilan ta'minlash hamda uy-joy kommunal xizmatlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 04.10.2024 йилдаги ПҚ-347-сон “Камбағалликни қисқартириши ва бандлик соҳасида давлат сиёсатини такомиллаштириши ва самарадорликни ошириши чора-тадбирлари тўғрисида”

2. **"Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi:** Mazkur dastur yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari va loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish, shuningdek, band bo‘lmagan yoshlarni haq to‘lanadigan ishlarga jalb etishni nazarda tutadi.

3. **Uy-joy va ipoteka bozorini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar:** Prezident farmoniga muvofiq, 2025-yilda aholini uy-joy bilan ta‘minlash dasturining asosiy yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, hududlarda jami 8,1 million kvadrat metrdan iborat 135 ming kvartirali uy-joylar qurilishi rejalashtirilgan

Aholi bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirish orqali kambag‘allik darajasini qisqartirish bo‘yicha hududlar kesimidagi

2

| /r | Chora-tadbirlar nomi | Jami | Hududlar kesimida: | | | | | | | | | | | | | |
|----|---|------|--------------------|---------|--------|--------|--------------|--------|-----------|------------|----------|--------------|----------|-----------|--------|-----------------|
| | | | Qoraqal noq'is- | Andijon | Buxoro | Jizzax | Qashqad aryo | Navoiy | Namang an | Samarqanda | Sirdaryo | Surxond aryo | Toshkent | Farg'on a | Xorazm | Toshkent shahri |
| . | Ijara asosida ajratilgan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarida sanoatlashgan plantatsiya, bog‘ va uzumzorlar tashkil etish. | 167 | 16 | 15 | 12 | 12 | 14 | 6 | 11 | 14 | 9 | 14 | 15 | 18 | 11 | - |
| .1 | 2025-yil 1-dekabrqa qadar | 50 | 5 | 4 | 4 | 4 | 4 | 2 | 3 | 4 | 3 | 4 | 4 | 6 | 3 | 0 |
| .2 | 2026-yil davomida | 117 | 11 | 11 | 8 | 8 | 10 | 4 | 8 | 10 | 6 | 10 | 11 | 12 | 8 | 0 |
| . | Ijara asosida yer maydonlari ajratilgan tuman (shahar)larda kamida 40 gektar maydonda “bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosida yuqori daromadli va eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha namunaviy loyihalarni amalga oshirish. | 6680 | 640 | 600 | 480 | 480 | 560 | 240 | 440 | 560 | 360 | 560 | 600 | 720 | 440 | 0 |
| . | Har bir viloyatda kamida ikkitadan yirik ko‘p qavatli kompleks sanoat | 28 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |

| | | | | | | | | | | | | | | | | |
|----|---|-----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| | markazlarini barpo etish va tadbirkorlarni joylashtirish. | | | | | | | | | | | | | | | |
| . | Sanoat kirib bormagan mahallalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda kichik ishlab chiqarish loyihalarini ishga tushirish. | 3 000 | 14 4 | 288 | 17 3 | 98 | 26 1 | 10 5 | 25 0 | 35 7 | 76 | 23 0 | 32 6 | 33 8 | 16 8 | 186 |
| .1 | 2025-yil 1-dekabrga qadar | 1 000 | 48 | 96 | 58 | 33 | 87 | 35 | 83 | 11 9 | 25 | 77 | 10 9 | 11 3 | 56 | 61 |
| .2 | 2026-yil davomida | 2 000 | 96 | 192 | 11 5 | 65 | 17 4 | 70 | 16 7 | 23 8 | 51 | 15 3 | 21 7 | 22 5 | 11 2 | 125 |
| . | Har yili hunarmandchilik va kasanachilik loyihalarini mahallaning o'zida joriy etish hamda kengaytirish choralarini ko'rish. | 500 | 41 | 39 | 31 | 32 | 38 | 26 | 34 | 38 | 26 | 36 | 53 | 46 | 31 | 29 |
| . | Mahallalarda salohiyatli tadbirkorlar, ekspertyorlar va brokerlar bilan hamkorlikda yetakchi tadbirkorlar faoliyatini yo'lga qo'yish. | 4 122 | 19 8 | 398 | 23 7 | 13 6 | 35 9 | 14 4 | 34 4 | 49 2 | 10 5 | 31 6 | 44 7 | 46 4 | 23 1 | 251 |
| .1 | 2025-yil 1-dekabrga qadar | 2 000 | 96 | 193 | 11 5 | 66 | 17 4 | 70 | 16 7 | 23 9 | 51 | 15 3 | 21 6 | 22 5 | 11 2 | 123 |
| .2 | 2026-yil davomida | 2 122 | 10 2 | 205 | 12 2 | 70 | 18 5 | 74 | 17 7 | 25 3 | 54 | 16 3 | 23 1 | 23 9 | 11 9 | 128 |
| . | Har yili o'zini o'zi band qilgan fuqarolarni bosqichma-bosqich kichik biznes subyektlariga aylantirish choralarini ko'rish. | 50 000 | 2 727 | 4 621 | 2 783 | 2 017 | 4 847 | 1 471 | 4 175 | 5 730 | 1 231 | 3 869 | 4 155 | 5 530 | 2 717 | 4 127 |

Uy xo'jaliklarini muvofiqlashtirish maqsadida buyuk mutaffakir, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiyniny "Mahbub-ul-qulub" asarida mamlakatdagi ijtimoiy guruhlarning jamiyatda tutgan o'rnini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Uning

fikriga ko'ra dehqonlar, hunarmandlar va chet el bilan aloqasi bor savdogarlar jamiyatda va mamlakatda moddiy boylik ko'paytirishda muhim rol o'ynaydi. Unga ko'ra uy xo'jaliklari yaratilgan mahsulotni tovar xo'jaligi deb atadi. Tovar xo'jaligida yaratilgan mahsulotni 3 qismga bo'ladi:

- birinchi qism yaratilgan mahsulot uchun ketgan xarajatlarga
- ikkinchi qism o'z ehtiyojlari uchun ishlatilishi kerakligi
- uchinchi qismi esa jamiyat ya'ni mamlakat aholisi ehtiyojlari uchun

ishlab chiqilishi zarurligi to'g'risidagi fikrlarni keltirgan.

Bundan tashqari Yevropa iqtisodchi olimlarning ba'zi fikrlarini keltirish mumkin:

Adam Smith “Har bir inson o‘z manfaatini ko‘zlaganda, jamiyat umumiy ravishda rivojlanadi.” (*The Wealth of Nations, 1776*)

Talqin: Uy xo'jaliklari daromadlarini oshirish bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga mos holda shakllanadi. Erkin bozor sharoitida har kim o'z foydasini ko'zlab harakat qilsa, natijada umumiy farovonlik ortadi. Chunki har bir aholining ehtiyojlari qondirilishi mamlakat yaratilgan mahsulot tashqi savdoga chiqarilishi imkonini beradi.

Karl Marks “Ish haqi mehnatning haqiqiy qiymatini aks ettirmaydi, balki bozor sharoitlariga bog‘liq holda belgilanadi.” (*Das Kapital, 1867*)

Uy xo'jaliklarining daromadlari mehnat unumdorligi va kapitalist tizimdagi kuchlar

o'rtasidagi kurash natijasida belgilanadi. Unga ko'ra kitobning 1-tomida korxonalar yoki iqtisodiyot tarmoqlarida o'zgaruvchan kapital va mehnatning hissasi qancha ko'p bo'lsa, qo'shimcha qiymat miqdori shuncha ko'p bo'ladi lekin kapitalning tuzilishi qancha yuqori bo'lsa, ya'ni korxonalarining mexanizatsiyalashuvi yoki tarmoqlarning mashina va asbob-uskunalar bilan qurollanish darajasi yuqori bo'lsa, qo'shimcha qiymat miqdori shuncha kam bo'ladi. John Maynard Keynes **“Daromadni oshirishning eng yaxshi yo‘li – odamlarning sarflash istagini kuchaytirishdir.”** (*The General Theory of Employment, Interest and Money, 1936*) Uy xo'jaliklari daromadlari iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi muvozanatga bog'liq. Agar aholi ko'proq xarid qilsa, iqtisodiyot tezroq rivojlanadi, daromadlar ortadi. Xo'jalik faoliyatini milliy iqtisodiyot darajasida tahlil qilish faqat pul massasi va bahoning umumiy darajasining o'zaro aloqasi muammosigagina kelib taqalgan, xolos. Buning ustiga e'tibor faqat uzoq muddatli jihatlariga qaratilgan. J.M.Keynes birinchi bo'lib makroiqtisodiy uslub qo'lladi, ya'ni xalq xo'jaligi yalpi miqdorlari ijtimoiy mahsulot, yalpi jamg'arma, yalpi investitsiya, yalpi iste'mol xarajatlari va boshqalar o'rtasidagi bog'liqlik va nisbatlarni tadqiqot qildi. Uning tahlilining boshlang'ich nuqtasi qilib ish bilan bandlik muammosi tanladi. Chunki ishsizlik o'sha paytda nihoyatda ko'paygan edi. U yuqori rivojlangan bozor iqtisodiyotida hayotiy zarur muammolar shu jumladan ish bilan bandlik muammosi yechimini taklifdan emas, balki talabdan qidirish kerak

degan fikrlarni ilgari surgan. Simon Kuznets **“Daromadlar tengsizligi dastlab oshadi, keyin esa iqtisodiy rivojlanish bilan pasayadi.”** (*Economic Growth and Income Inequality, 1955*) Uy xo‘jaliklari daromadlari iqtisodiy o‘shish bosqichlarida turlicha taqsimlanadi. Dastlab, sanoatlashish jarayonida daromad tafovutlari ortadi, lekin uzoq muddatda iqtisodiy rivojlanish barqarorlashgach, tengsizlik kamayadi. Kuznets qonuni bo‘yicha intensiv rivojlanish yo‘liga o‘tgan davlatlarda birinchi o‘n yillikda daromadlar va boyliklarning notekis o‘shishi taqsimlanishga xos bo‘ladi, undan keyin esa daromadlarning ma‘lum me‘yor atrofida bo‘lishi kuzatiladi. Bu g‘oyaning hozirgi davrda mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tgan mamlakatlar uchun ahamiyati juda katta. Olim fikricha iqtisodiy o‘shishning quyidagi mezonlari belgilab beradi:

- Daromadning aholi jon boshiga qarab o‘shish suratlari
- Ishchi kuchining tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti:
- Aholining hududlar bo‘yicha joylashuvi degan xulosani bergan.

"Consumption Economics" – Angus Deaton, John Muellbauer (1980) Uy xo‘jaliklarining daromadlari va iste‘mol harajatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi. Kitob mikroiqtisodiyotning iste‘mol bo‘yicha klassik va zamonaviy nazariyalarini qamrab oladi. Ular uch muhim jihatlarni e‘tirof etadi

- Daromad va iste‘mol o‘zgaruvchanligi.
- Uy xo‘jaliklarining turli daromad guruhlari bo‘yicha iqtisodiy farqlari
- Iste‘mol bozoridagi noaniqlik va unga moslashuv mexanizmlari.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida uy xo‘jaliklarining daromadini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ishlab chiqilgan davlat dasturlaridan samarali foydalanish, aholi bandligini ta‘minlash maqsadida mahallalar kesimida “hokim yordamchisi” lavozimi orqali hududlar kesimida mahallalarning yo‘l drayverlarini ishlab chiqish. Bundan tashqari maqolada ilmiy bilishning induksiya, deduksiya, ilmiy abstraksiya va statistik usullaridan foydalanilgan. Ilmiy nazariyalarga va xorijiy iqtisodchi olimlarning asarlarida keltirilgan nazariy asoslar bilan izohlangan.


Tahlil va natijalari

Aholi bandligini ta‘minlash dasturlarini shakllantirish, bo‘sh ish o‘rinlari hisobini yuritish, ishsizlarni ishga joylashtirish — har yil uchun hududlar, tarmoq va sohalar kesimida aholi bandligini ta‘minlash dasturini ishlab chiqish va uning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, mavjud bo‘sh ish o‘rinlari hisobini yuritish va monitoring qilish, ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirishni tashkil etish va ish beruvchilar bilan bog‘lash, kasbiy standartlarni ishlab chiqish, kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitish, malakani baholash — xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda xorijda tan olinadigan kasbiy standartlarni ishlab chiqish, talab yuqori bo‘lgan kasb va xorijiy tillarga o‘qitish bo‘yicha davlat buyurtmasini shakllantirish, standartlar asosida malakani baholash xizmatlari bozorini tartibga solish, sohaga xususiy sektorni keng

jalb qilish. Bundan tashqari davlat imtiyozli kreditlari asosida xizmat ko'rsatish sohalarini shakllantirish bu orqali kichik tadbirkorlik tarmoqlarini ko'paytirish. Ishlab chiqarish hajmini oshirishda eng ko'p e'tibor mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yilganligi. Bugungi kunda mehnat bozorini shakllantirish mehnat taqsimotini muvofiqlashtirish, inson resurslarini boshqarish va bularning o'rtasidagi tizimli munosabatlarni yo'lga qo'yish ya'ni integratsiyalash buning ham salbiy ham ijobiy tomonlari ko'rib chiqilgan. Xuddiki yangi mahsulot yaratilganda birinchi bo'lib onlayn savdo platformalargatiriladi bu esa xaridorlarga nisbatan juda tez qiziqshni va bu haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Umuman olganda sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatni tizimli yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. Ish beruvchi va ishchilar o'rtasidagi munosabat xuddi shu kabi bo'lsa ya'ni aytaylik biror korxonada yangi ish o'rni yaratildi va integratsiya natijasida syni vaqtda mutaxassisligi bo'lgan va ish izlab yurgan ishchilarga onlayn tarzda ma'lumot berilsa yoki korxonalarda ishchi biror boshqa joyga ishga o'tdi va uning o'rni bo'sh qoldi bu to'g'ridagi ma'lumotlar ham ish izlab yurgan mutaxassislarning shaxsiy elektron manziligi raqamlashtirish natijasida kelib tursa bu esa o'z navbatida buyurtmachi va mutaxassislar o'rtasidagi munosabatlarni osonlashtirish imkonini beradi. Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari mansabdor shaxslariga mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, aholi bandligi to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaganligi uchun kameral nazorat o'tkazish vakolati beriladi.


Kambag'allikni oldini olish maqsadida 2022-yildan boshlab "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali oilani kam ta'minlangan deb e'tirof etishda qo'llaniladigan bir oylik o'rtacha daromad mezoni minimal iste'mol xarajatlariga tenglashtirildi. Ba'zi nafaqalar va boshqa ijtimoiy me'yorlar minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmagan miqdorda to'lanishi kerak. O'zbekiston ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini joriy etishni rejalashtirmoqda, bu aholining turmush sharoitlarini yanada aniqroq baholash va kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu borada 2024-yil dekabr oyida prezident Shavkat Mirziyoyev kambag'allik darajasi 2024-yil oxiriga kelib 9 foizga tushishiga erishilgan bo'lsa, tadbirkorlar bilan hamkorlik davom ettirilsa, "kelgusi yillarda bu ko'rsatkichni bema'lol 6 foizga tushiramiz".

1. Aholi daromadlari uning tarkibi va manbalari



3

Aholi daromadlari darajasini tahlil qilishda nominal, shaxs ixtiyoridagi va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi



4




Aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari ulushi va o'sish sur'ati
2020–2024-yillarning yanvar–sentabr oylarida

2024-yilning yanvar–sentabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari **27,5 %** ni tashkil qilgan.



Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi
(2024-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha, ming so'm)



XULOSA

Uy xo'jaliklarining daromadini ko'paytirish kambag'allikni qisqartirish uchun muhim omil hisoblanadi. Daromadning ortishi, uy xo'jaliklarining hayot darajasini yaxshilashga, ta'lim, sog'liqni saqlash, va boshqa ehtiyojlar uchun resurslarni oshirishga yordam beradi. Kambag'allikni qisqartirish uchun uy xo'jaliklarining daromadini ko'paytirishning ba'zi asosiy yo'llari:

1. **Ta'lim va malaka oshirish:** Uy xo'jaliklarining daromadini ko'paytirish uchun ko'pincha ta'lim va malaka oshirish zarur bo'ladi. Bu ishga joylashish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi va yuqori maoshli kasblarga o'tish imkonini yaratadi.

2. **Ishsizlikni kamaytirish:** Ish bilan ta'minlash va doimiy ish joylari yaratish uy xo'jaliklarining daromadini oshirishga yordam beradi. Ishsizlik darajasi kamayganda, kambag'allikning kamayishiga olib keladi.

3. **Mikrokreditlar va kichik bizneslarni qo'llab-quvvatlash:** Uy xo'jaliklariga mikrokreditlar yoki kichik bizneslar yaratish uchun moliyaviy yordam berish, ularning iqtisodiy holatini yaxshilashga yordam beradi.

4. **Ijtimoiy himoya tizimi:** Ijtimoiy himoya dasturlari, masalan, subsidiyalar, pensiyalar va ish bilan ta'minlash dasturlari, kambag'allikni kamaytirish va uy xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, uy xo'jaliklarining daromadlarini oshirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanish uchun ham zarur. Bunday chora-tadbirlar orqali kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash mumkin.

Shavkat Mirziyoyevning "Kambag'allikdan farovonlik sari" mavzusidagi maruzasi O'zbekistonning kelgusi rivojlanish strategiyasini, aholining turmush darajasini oshirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilganligini ko'rsatdi. Kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, kichik biznesni rivojlantirish va barqaror rivojlanish jarayonlarini ta'minlash — bularning barchasi farovonlik sari qadam tashlash uchun zaruriy shartlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

IQTISODIY RIVOJLANISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH:

1. Todaro, M. (2004). *Economic Development*. 8th Edition.
2. Ravallion, M. (2009). *The Developing World's Bulging (But Vulnerable) Middle Class*. World Development.

UY XO'JALIKLARINING DAROMADINI KO'PAYTIRISH VA IJTIMOIIY YORDAM:

1. Banerjee, A., Duflo, E. (2019). *Good Economics for Hard Times*.
2. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*.

MIKROKREDIT VA KICHIK BIZNESLAR:

1. Yunus, M. (2007). *Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism*.
2. De Mel, S., McKenzie, D., & Woodruff, C. (2008). Returns to Capital in Microenterprises: Evidence from a Field Experiment. *Quarterly Journal of Economics*.

IJTIMOIIY HIMOYA VA DAROMAD TAQSIMOTI:

1. World Bank (2016). World Development Report 2016: Digital Dividends.
 2. International Labour Organization (ILO) (2015). World Employment and Social Outlook: The Changing Nature of Jobs.
-

RIVOJLANISH SIYOSATI VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH:

1. Meier, G. M., & Rauch, J. E. (2005). Leading Issues in Economic Development. 8th Edition..

Saytlar ro'yhati.

1. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
2. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
3. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti
4. <http://www.cbu.uz>.